

XIKOL QUYON ZOTINING NASLCHILIK XUSUSIYATLARI, GO'SHT MAHSULDORLIGI VA INTENSIV YETISHTIRISH SAMARADORLIGI

Imomaliyev Shohruxbek Abdunosir o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti
"Chorvachilik va veterinariya meditsinasi" kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xikol quyon zotining naslchilik va biologik xususiyatlari, go'sht mahsuldorligi hamda intensiv yetishtirish texnologiyasining samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Xikol quyonlarining tez o'sishi, yuqori go'sht chiqimi, ozuqadan samarali foydalanishi va ko'payish qobiliyati o'rganildi. Shuningdek, ularni oziqlantirish, saqlash va parvarishlashning zamonaviy usullari yoritildi. Xikol zotining sanoat quyonchiligida qo'llanilishi, iqtisodiy samaradorligi va yuqori sifatli parhez go'sht yetishtirishdagi ahamiyati baholandi. Olingan natijalar ushbu zotni respublikamiz sharoitida keng joriy etish quyonchilik tarmog'ining rentabelligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Xikol quyon zoti, quyonchilik, naslchilik, biologik xususiyatlar, go'sht mahsuldorligi, intensiv texnologiya, oziqlantirish, parvarishlash, ko'paytirish, iqtisodiy samaradorlik, ozuqa konversiyasi, parhez go'sht.

REPRODUCTIVE CHARACTERISTICS, MEAT PRODUCTIVITY AND INTENSIVE GROWING EFFICIENCY OF THE HIKOL RABBIT BREED

Imomaliyev Shohruxbek Abdunosir oglu

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Assistant of the Department of "Animal Husbandry and Veterinary Medicine"

Abstract: This article analyzes the breeding and biological characteristics of the Hicol rabbit breed, its meat productivity, and the effectiveness of

intensive breeding technology. The study examined the rapid growth, high meat yield, efficient feed utilization, and reproductive capacity of Hickol rabbits. It also highlighted modern methods of feeding, housing, and caring for them. The use of the Hickol breed in industrial rabbit breeding, its economic efficiency, and its importance in producing high-quality dietary meat were evaluated. The results obtained showed that the widespread introduction of this breed in the conditions of our republic would serve to increase the profitability of the rabbit breeding industry.

Keywords: Xicol rabbit breed, rabbit breeding, breeding, biological characteristics, meat productivity, intensive technology, feeding, maintenance, breeding, economic efficiency, feed conversion, dietary meat.

Kirish Xicol zotining kelib chiqishi. Xicol quyon zoti Frantsiyada 1913-yilda yetishtirilgan bo‘lib, asosan Kaliforniya va Yangi Zelandiya oq quyon zotlarini chatishtirish natijasida olingan. Maqsad yuqori sifatli go‘sh t olish va tez yetilish xususiyatlarini yaxshilash bo‘lgan. Xicol zotining yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo‘lishi va nasl berish qobiliyatining kuchliligi uni iqtisodiy jihatdan foydali chorvachilik tarmog‘iga aylantirgan.

Xicol quyon zoti sanoat chorvachiligida yuqori mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Ular asosan go‘sh yetishtirish maqsadida parvarish qilinadi va tez o‘shishi, go‘sh sifatining yuqoriligi bilan qimmatli hisoblanadi. Ushbu maqolada Xicol quyon zotining kelib chiqishi, tashqi va genetik xususiyatlari, yetishtirish texnologiyasi va iqtisodiy ahamiyati haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar beriladi.



Tashqi va genetik xususiyatlari. Xikol quyonlari oʻrtacha 4,5–5,5 kg vaznga ega boʻlib, tanasi ixcham, muskullari yaxshi rivojlangan boʻladi. Jun qoplami oq, yumshoq va qalin. Ularning terisi ham sanoatda yuqori baholanadi. Xikol zotining goʻsht hosildorligi 60–65% ni tashkil etadi, bu esa ularning goʻsht ishlab chiqarish uchun qulayligini koʻrsatadi. Bundan tashqari, bu zot tez yetilish va koʻpayish qobiliyatiga ega boʻlib, bir urgʻochi quyon yilliga 7–8 marta nasl berishi mumkin.

Xikol quyonlarini yetishtirish va parvarishlash. Ushbu zotdagi quyonlarni boqishda ularning maxsus oziqlantirish rejimiga rioya qilish muhimdir. Ratsion tarkibida protein, vitamin va minerallarga boy yemlar boʻlishi lozim. Shuningdek, quyonlar uchun sanitariya va gigiyena sharoitlarini taʼminlash kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni qafaslarda yoki maxsus fermalarda saqlash mumkin. Optimal harorat rejimi 15–20°C boʻlib, yaxshi shamollatilgan va quruq joylar quyonlar uchun ideal hisoblanadi. Urgʻochi quyonlar 3-4 oyda jinsiy yetiladi va urugʻlantirishga tayyor holga keladi. Ona quyonlar xar 30 kunda 8 tadan 12 tagacha bolalaydi. Ona quyon va bolasini bir oy birga boqiladi va bir oydan keyin ajratiladi, va ajratilgan bolalarni yana 2-3 oy boqilsa vazni 1000-1600gramgacha tayyor

yetilgan quyonlar holatiga keladi. Undan ko`proq yani 4-5 oy boqilsa 5kg gacha sof quyon go`shtini olish mumkin. Ona quyonlarni 15-20 kun dam oldirib yana urug`lantirsak 28-30 kunda 8-12 tagacha nasl beradi. Shunday qilib quyonlar bir yilda 6-7 martagacha bolalaydi. O`rtacha hisobda bitta Xikol zotli ona quyon 10ta bolalaydi va bolari bir oydan keyin ajratilib alohida boqiladi. 2-3 oyda bolari 1,6kg vaznga ega bo`ladi. Bir kilo quyon go`shtimiz hozirgi kunda o`rtacha 50000 ming so`m hisoblanadi. Bundan tashqari bitta quyonimiz 3 oyda 10 taga ko`payadi,



Xikol zotining iqtisodiy samaradorligi Xikol quyonlari tez o`shishi, oziq-ovqatni yaxshi o`zlashtirishi va yuqori go`sht hosildorligi bilan iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi. Quyon go`shti bozorida talab yuqori bo`lib, u parhez mahsulot sifatida qadrlanadi. Shuningdek, ularning terisi ham yengil sanoatda keng qo`llaniladi. Xikol zotining ozuqaviy samaradorligi boshqa quyon zotlariga nisbatan yuqori bo`lib, bir kilogramm o`shish uchun nisbatan kam yem sarf etiladi.

Xulosa va takliflar Xikol quyon zotini yetishtirish go`sht yetishtirish sanoati uchun istiqbolli yo`nalishlardan biridir. Ularning yuqori mahsuldorligi,

tez yetilishi va oson parvarishlanishi iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ushbu zotni keng miqyosda yetishtirish va uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va oziqlantirish tizimini yanada takomillashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. U.Sh.Ballasov, Sh.Q.Mamatimov Quyunchilik boqish, parvarishlash, ko‘paytirish va davolash bo‘yicha tafsiyalar. Toshkent-2016.

2. B.A.Elmirodov. A.K.Turdiyev, N.Nabiyev Quyunchilik Monogirafiya Samarqand-2018

3 Ruziev R.I., Yuldashev D.K., Xidirov K.I. va boshqalar. Quyonlarni saqlash, oziqlantirish va naslchilik ishlari. Toshkent. “Fan ziyoesi” 2023 y.150 b.

4. Kalugin Yu.A. Quyonlar organizmida ozuqalar so‘rilishi va xazmlanishi Quyunchilik va mo‘ynachilik j.- 2009 – №4 – 31-30 b.

5. <https://agro-olam.uz/quyonning-biologik-hususiyatlari>